



## **XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING QARORI**

---



---

2022 - yil 23 - may

VI-61-115-7-92-K/22

Oqdaryo tumani hokimligi

### **Tuman mahalliy budgetining 2022-yilning 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida**

Tuman tibbiyot birlashmasining bildirish xati hamda tuman Moliya bo‘limining xulosa xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmis birinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman tibbiyot birlashmasi hamda tuman Moliya bo‘limining bildirish va xulosa xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman mahalliy budgetining 2022-yilning 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag‘lar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (U.Maxmanazarov)ga tuman mahalliy budgetiga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman G‘aznachilik bo‘limi (H.Ablaqulov)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.
4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov)ga, nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M. Ergasheva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Qudratov Sh.

Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashining  
2022 yil 23 maydag'i  
VI-61-115-7-92-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Tuman mahalliy budgetining 2022-yil I chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va ajratiladigan mablag'lar miqdori**

T/r	Mablag' ajratiladigan tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag' miqdori (ming so'mda)	Izoh
1	Tuman tibbiyot birlashmasiga	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "Ahолига ко'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordamining sifatini yaxshilash, tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash va faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-215-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Tumandagi "Yangiravot-1" mahalla fuqarolar yig'in "G'alaba" qishlog'iga va "Taraqqiyot" mahalla fuqarolar yig'ini "Ozoddarxon" qishloqlariga joylardagi oilaviy poliklinika filiallari negizida oilaviy shifokor punktlari tashkil etish uchun olib kelingan konteynerlarni o'rnatish xarajatlariga	50000,0	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i A.R.Usanova 2022-yil 12-maydag'i 234-sonli xati hamda tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri U.Maxmanazarovning 2022-yil 16-maydag'i 2/06-38/309-sonli xulosa xati
	<b>Jami:</b>	<b>x</b>	<b>50000,0</b>	